




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

20 aprel, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 20 aprel 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,693% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,325% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,482% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasayib va 9,264% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,635% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,066% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,539% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,440% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,790% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,790% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,57-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,63% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich ko'tarilib va — 3,67% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,204% (3 oylik) va 2,415% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,589% (6 oylik) va 2,2% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 835,4 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 111,9 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 126 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 128 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,47% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




20.04.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Open bank* da qayd etilgan – 12 180 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 190 – 12 250 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Infinbank* da qayd etilgan – 12 160 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 150 – 12 085 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: cheklangan oraliqda muvozanat saqlanmoqda

2026-yil 13–17-aprel kunlari USD/RUB kursi nisbatan barqaror darajada saqlanib qoldi. Kurs harakati 76,0–77,0 oralig'ida kechib, aniq yo'nalish shakllanmadi. 76,0 darajasiga qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, bozor tez orada o'rtacha qiymatlarga qaytdi. Ushbu holat talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni hamda jiddiy makroiqtisodiy omillar ta'siri sezilmayotganini anglatadi. Qisqa muddatda kursning shu kabi barqaror, yonlama harakati davom etishi ehtimoli yuqori.



RUB/CNY: aniq tendensiyasiz barqaror tebranishlar

2026-yil 13–17-aprel kunlari RUB/CNY kursi past o'zgaruvchanlikni namoyon etdi. Ko'rsatkichlar 10,5–10,8 oralig'ida tebranib, aniq va barqaror yo'nalish shakllanmadi. 15-aprel kuni kuzatilgan qisqa muddatli pasayishdan so'ng kurs qisman tiklandi. Ushbu dinamika bozorning muvozanatli holatini hamda barqaror savdo oqimlarini aks ettiradi. Qisqa muddatli istiqbolda yonlama harakatning davom etishi ehtimoli yuqori.



EUR/USD: dollar zaiflashuvi fonida bosqichma-bosqich o'sish

2026-yil 13–17-aprel davrida EUR/USD kursi yevroning bosqichma-bosqich mustahkamlanishini ko'rsatdi. 13-aprel kuni 1,1765 darajasigacha pasayish kuzatilganidan so'ng juftlik yuqoriga yo'nalgan harakatni boshladi va davr oxiriga kelib 1,1848 darajasiga yetdi. Ushbu dinamika dollar valyutasining asta-sekin zaiflashuvi hamda yevroga nisbatan mo'tadil talab mavjudligini anglatadi. Qisqa muddatda bozor keskin impulslar kuzatilmagan holda sekin o'sish rejimida qolishi kutilmoqda.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)




Oltin: volatillikdan so'ng barqarorlashuv



2026-yil 13–17-aprel davrida oltin narxlarini mo'tadil tebranishlarini namoyon etdi. 14-aprel kuni \$4840,3 darajasigacha ko'tarilgandan so'ng, bozor korreksiyaga o'tdi va haftani \$4828,3 darajasida yakunladi. Bu holat investorlarning global iqtisodiy omillarga nisbatan yuqori sezgirliqi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Qisqa muddatda oltin konsolidatsiya bosqichida bo'lib, keyingi o'sish salohiyatini saqlab qolmoqda.

Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)




Brent nefti: keskin tebranishlar bosqichida bozor



2026-yil 13–17-aprel haftasida Brent neft kotirovkalari beqaror dinamikani namoyon etdi. 16-aprel kuni \$99,39 darajasi sinovidan so'ng, tezkor pasayish kuzatildi va 17-aprelga kelib narx \$90,38 gacha tushdi. Ushbu harakat sotuvchilar bosimining kuchayganini hamda bozorning yangiliklarga yuqori sezgirliгинi ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda Brent aniq trend shakllanmagan keng diapazonda harakatlanmoqda, yaqin istiqbolda esa ikki tomonlama keskin impuls ehtimoli saqlanib qolmoqda.

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



TTF gazi: taklif bosimi ostida barqaror pasayish



2026-yil 13–17-aprel davrida TTF gaz kotirovkalari aniq pasayish tendensiyasini namoyon etdi. \$55,6 darajadagi lokal maksimumdan so'ng narxlar izchil ravishda tushib bordi va 17-aprelga kelib \$46,1 darajasiga yetdi. Ushbu harakat talabning zaiflashgani hamda Yevropada yetkazib berish muvozanatining yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Qisqa muddatli istiqbolda bozor bosim ostida qolmoqda, mavjud omillar saqlanib qolsa, qo'shimcha korreksiya xavfi ham mavjud.

Yangiliklar

Ziraat Bankasi raqamli bozorni tubdan o'zgartirmoqda

Ziraat Bankasi raqamli transformatsiyani sezilarli darajada jadallashtirib, onlayn segmentdagi ishtirokini kuchaytirmoqda. 2026-yil aprel o'rtalarida bank yangi tezkor to'lovlar tizimini ishga tushirmoqda. Shu fon'da mobil ilovalar foydalanuvchilari soni jadal sur'atlarda oshmoqda. Mazkur o'zgarishlar Turkiya moliya bozoridagi raqobat muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangi o'yin qoidalarini shakllantirmoqda.



Deutsche Bank xavfsizlik choralarini kuchaytirmoqda

Deutsche Bank kiberhujumlar sonining ortishiga javoban xavfsizlik tizimlarini yanada kuchaytirmoqda. 2026-yil aprel o'rtalarida yangi himoya mexanizmlari joriy etilmoqda. Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash eng ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Ushbu o'zgarishlar Yevropa bank sektoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.



Sberbank kelajak bankini yaratmoqda

Sberbank barcha xizmatlariga sun'iy intellektni faol joriy etmoqda. 2026-yil aprel oyida bank tobora texnologik ekotizimga aylanib bormoqda. Ko'plab operatsiyalar allaqachon avtomatlashtirilgan. Mijozlar esa to'liq raqamli xizmat ko'rsatish tajribasidan foydalanmoqda.



BNP Paribas moliyaviy inqilobga tayyorgarlik ko'rmoqda

BNP Paribas raqamli yevroni faol ilgari surmoqda. 2026-yil aprel oyida Yevropa o'zining mustaqil to'lov tizimini yaratish jarayonini jadallashtirmoqda. Bu esa Visa va Mastercard tizimlariga qaramlikni kamaytiradi. Natijada bank sektori yangi bosqichga qadam qo'yimoqda.

